

ONA TILI (MAJBURIY)


- Hol ajratib ko'rsatilgan gapni toping.
A) Tabiatni avaylab-asraylik, avlodlarga omon yetkazaylik.
B) Bizga ham shunday kunlar ato etsin, farzandlar kamolini ko'raylik.
C) Yo'qotilgan vaqtni ortga qaytarib bo'lmaydi.
D) Bizning yurtimiz boy, tog'larimizda bebaho ma'danlar ko'p.
- Qaysi gapda kelishik qo'shimchasini qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik mavjud?
A) Bobomlar bizning hol-ahvolimizdan xabardor ekanlar.
B) Bog'bonning gaplari barchani o'ylantirib qo'ydi.
C) O'rinsiz aytilgan gap-so'zlar insonning diliga ozor yetkazadi.
D) Odobli va odobsizni o'rtasidagi farqni ayting.
- Qaysi gapdagi so'zlarning barchasi o'z ma'nosida qo'llangan?
A) Men gulzordagi chiroyli gullardan guldasta yasab oyimga sovg'a qildim.
B) Bulut bugun o'zining ko'kish ko'ylagini erinmay yuvishga tushdi, shekilli, yomg'ir tinay demasdi.
C) Bu achchiq gapni eshitgan zahotimoq peshonamdan sovuq ter chiqib ketdi, yuragimni qo'rquv eza boshladi.
D) G'azal ham bo'lurmi buncha dilrabo, Bunchalar serishva, bunchalar tannoz?
- Qaysi gapda ko'p nuqta o'rnida "qattiq" so'zini ham, "astoydil" so'zini ham qo'llash mumkin?
A) Fe'l-atvori tushunarsiz, bir qarasang, qahri . . . ota, bir qarasang, yosh boladek sho'x yigit.
B) Sodiqboy juda . . . odam, qishda qor so'rasang ham, bermaydi.
C) Ishga . . . berilib ketgan ekan, eshikni ochganimda cho'chib tushdi.
D) Ilgari . . . qish kunlarida ana shu choponi asqatar edi.
- Qaysi gapda tinish belgisi bilan bog'liq xatolik mavjud emas?
A) Qadamingni o'rinsiz tezlashtirsang: qoqilib yiqilishing mumkin.
B) Tinchlik eng bebaho ne'mat, u Baraka keltiradi o'g'lim.
C) Najot ikki narsa: taqvo bilan niyatda ekanligini biling.
D) Muhammad Yusufning Osmonning oxiri dostonini o'qiganmisiz?
- Qaysi gapdagi ayirmoq so'zi "turli ko'z bilan qaramoq" ma'nosida qo'llangan?
A) Siz odam ayirmang, biz hammamiz sizning xodimlaringiz sanalamiz.
B) Qo'shnilarning bu gapi Malika opani es-hushidan ayirdi, devorga majolsiz suyanib qoldi.
C) Ikki do'stning hazili janjalga aylanib ketdi, Nodirjon ularni zo'rg'a ayirib qo'ydi.
D) Bu ikki kasallikni bir-biridan ayira olmasangiz, o'zingizcha davolanishga harakat qilmang.
- Qaysi javobda qismlari qo'shib yoziladigan so'zlar

berilgan?

- A) olib//sotar, ko'pdan//ko'p
B) bodom//qovoq, ko'chama//ko'cha
C) umum//milliy, binafsha//rang
D) suv//ilon, taklif//qil
- Xato yozilgan so'zlar qatorini toping.
A) tafsif, okeyan B) hukm, internet
C) hamon, konstitutsiya D) qadriyat, marketing
- Qaysi gapda ravishning faqat payt ma'no turi qatnashgan?
A) Shu vaqt nima uchundir ichkarida o'tirganlar sharaqlab kulib yubordi.
B) O'ylab qarasam, avvallari yashash uchun yozgan ekanman, endi esa yozish uchun yashayapman.
C) Endi suv ichaman deb engashgan edim, changalzor asta shitirlagandek bo'ldi.
D) Keyin sal hushimni yig'ib qarasam, oyoqlarim go'yo o'zidan o'zi yurib ketyapti.
- Qaysi gapda imloviy xatolik mavjud emas?
A) Anjumanda mashhur shoirning ishtirogi bizga quvonch baxsh etdi.
B) Dadam uyimizda sayroqi qush asrashni yoqdirardi.
C) To'pni unga qarata otkan edim, ammo yetib bormadi.
D) Bu holat uzoqqa bormaydi, bilib qo'ying.


MATEMATIKA (MAJBURIY)

- Vaqt va uzunlik orasidagi bog'liqlik grafidagi 8 soatda ishchilar tomonidan yo'l qurilganligi tasvirlangan. Grafikda berilgan ma'lumotlardan foydalanib ishchilar qaysi oraliqda ENG UZUN yo'l qurganligini aniqlang.



- A) AB B) BC C) CD D) DE


- Qirrasini 1 santimetr bo'lgan kublar rasmdagidek joylashtirilgan. Hosil bo'lgan jismning hajmini (sm^3) toping.



- A) 5 B) 6 C) 3 D) 4


- 36,8364 sonini yuzdan birgacha aniqlikda yaxlitlang.
A) 36,836 B) 36,8 C) 36,84 D) 36,83

14. To'g'ri to'rtburchak shaklidagi yer maydoniga sabzi, kartoshka va piyoz ekilgan (rasmga qarang). Necha kvadrat metr maydonga sabzi, kartoshka va piyoz ekilgan?



- A) 3200 B) 3600 C) 2400 D) 800

15. Agar har bir katakning o'lchamlari $1\text{cm} \times 1\text{cm}$ bo'lsa, rasmda tasvirlangan kvadratning yuzini toping.



- A) 30 B) 25 C) 45 D) 50


16. $5\text{dm}^2 8\text{sm}^2 = ?\text{sm}^2$

- A) 508 B) 580 C) 58 D) 85

17. 2 ta bo'sh o'rindiqqa 3 kishidan 2 nafarini necha xil usulda o'tqazish mumkin?

- A) 3 B) 4 C) 5 D) 6

18. Siniq chiziq rasmda berilgan qonuniyat bo'yicha davom etsa, qaysi nuqtadan o'tadi?



- A) H nuqtadan B) M nuqtadan
C) G nuqtadan D) K nuqtadan

19. Rasmda berilgan ma'lumotlardan foydalanib quyidagi tengsizliklardan noto'g'risini aniqlang.



- A) $b+c > 0$ B) $a+b > 0$
C) $a \cdot b \cdot c > 0$ D) $b-a > 0$

20. Tenglamani yeching: $\frac{x-7}{3} + \frac{2x+1}{2} = \frac{5}{6}$

- A) 2 B) 3 C) 5 D) 4

O'ZBEKISTON TARIXI (MAJBURIY)

21. Yurtimiz tarixida fors podshosi Kir II bilan jang qilib, uning qo'shinlarini tor-mor keltirgan va uning o'zini ham halok qilgan vatan qahramoni qaysi

- A) To'maris B) Shiroq

- C) Frada D) Spitamin

22. XI asrdan boshlab ... manbalarida "Dashti qipchoq" deb nomlangan geografik hudud tilga olinadi?

- A) turk va arab B) so'gd va fors
C) arab va fors D) rus va vizantiya

23. Buxoro amirligi rasman tashkil etilgan sanani belgilang.

- A) 1756-yil B) 1709-yil
C) 1601-yil D) 1770-yil

24. Quyida keltirilgan qaysi qadimgi dunyo davlati hozirgi Farg'ona vodiysi hududiga to'g'ri keladi?

- A) Qang' B) Davan C) Baqtriya D) Kushon

25. Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi yurtimizda keng nishonlangan yilni ko'rsating?

- A) 1996-yil B) 2000-yil
C) 1999-yil D) 2004-yil

26. Quyida berilgan asarlardan Al-Xorazmiyga tegishlisini belgilang?

- A) Mineralogiya B) Al-qonun fit tib
C) Fozil odamlar shahri D) Al-jabr val muqobala

27. II-Jahon urushida 28 nafar fashistni otib o'ldirgan snayperchi o'zbek qizi kim?

- A) Zebo G'aniyeva B) Yodgor Nasriddinova
C) Ma'suma Qoriyeva D) Zebo Navro'zova

28. Bobur Mirzo tug'ilgan shaharni to'g'ri belgilang?

- A) Andijon B) Axsi
C) Farg'ona D) Samarqand

29. Amir Temur harbiy yurishlari davomida besh marotaba hujum qilib keyin bo'sundirgan hududni ko'rsating?

- A) Turkiya B) Xorazm
C) Misr D) Hindiston

30. Qaysi Xorazmshoh hukmdor davrida mo'g'ullar istilosi boshlanadi?

- A) Elarslon B) Takash
C) Qutbiddin Muhammad D) Alouddin Muhammad